



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

OLIIY TA'LIMDA SIFAT NAZORATI TIZIMINING AMALIY SAMARADORLIGI

Iroda Turaeva

Ilmiy daraja va unvon: Magistr

ORCID: 0009-0002-8850-7457

E-mail: Meghzebina@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlash va nazorat qilish mexanizmlarining amaliy samaradorligi tahlil qilinadi. Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi hamda oliy ta'lim muassasalaridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlarining vazifalari, talabalarining murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi va sifat monitoringining amaliy jihatlari o'rganiladi. Shuningdek, ta'lim sifatini nazorat qilishning hujjatbozlikka asoslangan yondashuvdan amaliy natijalarga yo'naltirilgan modelga o'tish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida talabalar, professor-o'qituvchilar va sifat bo'limlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifati, sifat nazorati, oliy ta'lim, talabalar murojaatlari, Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi, ichki sifat nazorati, sifat madaniyati, akademik halollik.

ПРАКТИЧЕСКИ ЭФФЕКТИВНАЯ СИСТЕМА КОНТРОЛЯ КАЧЕСТВА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье анализируется практическая эффективность механизмов обеспечения и контроля качества образования в системе высшего образования Узбекистана. Рассматриваются задачи Национального агентства по обеспечению качества и отделов контроля качества образования в высших учебных заведениях, порядок рассмотрения апелляций студентов, а также практические аспекты мониторинга качества. Обосновывается необходимость перехода от документального подхода к практической, ориентированной на результат модели контроля качества образования. По результатам исследования разработаны предложения по укреплению сотрудничества между студентами, преподавательским составом и отделами качества.

Ключевые слова: качество образования, контроль качества, высшее образование, апелляции студентов, Национальное агентство по обеспечению качества, внутренний контроль качества, культура качества, академическая честность.

THE PRACTICAL EFFECTIVENESS OF THE QUALITY CONTROL SYSTEM IN HIGHER EDUCATION

Abstract: This article analyzes the practical effectiveness of mechanisms for ensuring and controlling educational quality within Uzbekistan's higher education system. It examines the functions of the National Agency for Quality Assurance in Education and the quality control departments within

higher education institutions, the procedures for handling student appeals, and the practical aspects of quality monitoring. Furthermore, the article substantiates the need to transition from a paperwork-heavy approach to quality control to a model focused on practical outcomes. Based on the research findings, proposals have been developed to strengthen cooperation among students, faculty members, and quality control departments.

Keywords: *quality of education, quality control, higher education, student appeals, National Agency for Quality Assurance in Education, internal quality control, quality culture, academic integrity.*

KIRISH

Talaba ta'lim sifati bilan bog'liq muammoga duch kelganda uning murojaatini kim ko'rib chiqadi? Baholashdagi adolatsizlik, dars sifati pastligi, professor-o'qituvchilarning o'quv dasturiga rioya qilmasligi yoki akademik huquqlarning buzilishi kabi holatlar yuzaga kelganda talabalar qaysi mexanizmlardan foydalanishi mumkin? Ushbu savollar zamonaviy oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini ta'minlashning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim sifati nafaqat davlat ta'lim standartlariga muvofiqlik, balki talabalarning ta'lim jarayonidan qoniqish darajasi, ta'lim natijalari, akademik halollik va ta'lim xizmatlarining shaffofligi bilan ham baholanadi. Shu sababli ta'lim sifatini nazorat qilish faqat hisobotlar va statistik ko'rsatkichlar bilan emas, balki real ta'lim jarayonini monitoring qilish orqali amalga oshirilishi zarur. Hurmatli Prezidentimiz ta'kidlab o'tganlaridek: mamlakatda pedagogika yo'nalishidagi 15 ta davlat va 61 ta nodavlat oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, ularning ilmiy salohiyati atigi 40 foizni tashkil etadi. Bu esa ushbu muassasalarda ilmiy tadqiqotlar, ilmiy kadrlar salohiyati va ta'lim sifati yanada rivojlantirilishi zarurligini anglatadi. Mazkur omillar ta'lim tizimini transformatsiya qilish hamda uni izchil rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish zarurligini taqozo etdi. O'zbekistonda ta'lim sifatini nazorat qilishning zamonaviy institutsional tizimi 2017-yildan boshlab shakllana boshladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-iyuldagi 515-son qarori asosida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etildi.

METODOLOGIYA

2025-yilda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-76-son Farmoniga muvofiq Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tashkil etildi. Agentlikning asosiy maqsadi ta'lim tashkilotlarida sifat madaniyatini shakllantirish, tashqi baholash tizimini rivojlantirish, akkreditatsiya jarayonlarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga mos sifat boshqaruv tizimini joriy etishdan iborat. Milliy agentlik ta'lim tizimida mustaqil va markazlashgan sifat ta'minoti institutiga aylanishi ko'zda tutilgan bo'lib, uning faoliyati qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asoslanadi. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari ichki sifat ta'minoti tizimining asosiy subyekti hisoblanadi. Mazkur bo'limlar talabalar bilimni monitoring qilish, professor-o'qituvchilar faoliyatini tahlil qilish, baholash tizimining shaffofligini nazorat qilish va akademik halollik tamoyillarini joriy etish bilan shug'ullanadi.

Biroq zamonaviy oliy ta'lim amaliyotida sifat bo'limlari faqat nazorat qiluvchi tuzilma sifatida emas, balki universitetning rivojlanishiga ko'maklashuvchi hamkor institut sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu nuqtai nazardan, universitetlarning Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari quyidagi faoliyatlarni muntazam tashkil etishi maqsadga muvofiq:

- talabalar uchun sifat va akademik halollik bo'yicha seminarlar;
- professor-o'qituvchilar uchun treninglar va mahorat darslari;
- sifat haftaliklari va targ'ibot tadbirlari;
- ta'lim sifati bo'yicha tanlovlar va forumlar;
- talabalar bilan ochiq muloqot uchrashuvlari;
- murojaatlar bilan ishlash bo'yicha tushuntirish ishlari.

Natijada sifat nazorati faqat tekshiruv emas, balki sifat madaniyatini shakllantirish vositasiga aylanadi. Ta'lim sifati bilan bog'liq muammolarga duch kelgan talaba bir necha bosqichli murojaat tizimidan foydalanishi mumkin.

Birinchi bosqichda talaba professor-o'qituvchi, kafedra mudiri yoki dekanatga murojaat qiladi. Mazkur bosqichda ko'plab muammolar operativ ravishda hal qilinishi mumkin.

Ikkinchi bosqich sifatida universitetning Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi faoliyat yuritadi. Ushbu bo'lim:

- baholashning xolisligini;
- darslarning sifatini;
- o'quv jarayonining tashkil etilishini;
- akademik halollik talablariga rioya etilishini nazorat qiladi.

Uchinchi bosqichda murojaatlar universitet rahbariyati tomonidan ko'rib chiqiladi. Agar muammo tizimli xarakterga ega bo'lsa yoki universitet darajasida hal etilmasa, talaba Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligiga murojaat qilishi mumkin.

MUHOKAMA

Bugungi kunda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha normativ-huquqiy baza yetarlicha rivojlangan. Biroq amaliyotda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda:

Birinchidan, ayrim hollarda sifat monitoringi hujjatlarni tekshirish bilan cheklanib qoladi. Holbuki, ta'lim sifati auditoriyadagi real jarayonlar orqali namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, talabalar ko'pincha sifat bo'limlarining vazifalari va murojaat qilish imkoniyatlari haqida yetarli ma'lumotga ega emaslar.

Uchinchidan, talabalar murojaatlari bo'yicha statistik ma'lumotlar va ularning natijalari ommaga yetarli darajada e'lon qilinmaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifati masalasida asosiy muammo nazorat mexanizmlarining mavjud emasligida emas, balki ularning amaliy samaradorligidadir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi su'ratda takliflar ilgari suriladi:

OLIV TA'LIMDA SIFAT NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR

Monitoring	Rejalashtirilgan va rejasiz dars kuzatuvlari Anonim elektron so'rovnomalari
Raqamlashtirish	Yagona elektron murojaat platformasi
Shaffoflik va hisobdorlik	Ochiq hisobotlarni e'lon qilish
Talabalar ishtiroki	Talabalarni sifat komissiyalariga kiritish
Kadrlar rivoji	Pedagogik mahorat treninglari
Sifat madaniyati	Tanlov va tadbirlar
Tashqi monitoring	Agentlik monitoringlari va uchrashuvlari
Institutsional rivojlanish	Maslahat beruvchi sifat nazorati modeli

Zamonaviy xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sifatni ta'minlashning eng samarali modeli manfaatdor tomonlarning faol ishtirokiga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar fikr-mulohazalarini muntazam o'rganish, ish beruvchilarning ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirishdagi ishtirokini kengaytirish hamda professor-o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash sifat madaniyatini shakllantirishning muhim omillari hisoblanadi.

Kelgusida oliy ta'lim muassasalarida sifat nazoratini yanada takomillashtirish uchun raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalanish, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ichki sifat ta'minoti tizimlarini kuchaytirish va xalqaro akkreditatsiya standartlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta'lim sifatini baholashda faqat miqdoriy ko'rsatkichlarga emas, balki ta'lim natijalari, kompetensiyalar shakllanishi, innovatsion yondashuvlar va talabalarning qoniqish darajasi kabi sifat ko'rsatkichlariga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifatini ta'minlash tizimining barqaror rivojlanishi va amaliy samaradorligi nazorat mexanizmlarining mavjudligi bilan emas, balki ularning ta'lim jarayoniga ijobiy ta'siri, manfaatdor tomonlarning ishonchi va jamiyat ehtiyojlariga mos natijalarni ta'minlay olish darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli sifat nazoratining markazida inson omili, ta'lim jarayonining sifati va uzluksiz takomillashtirish tamoyili turishi zarur. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash va malakali kadrlar tayyorlash sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni.
2. Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi. O'zbekistonda ta'lim sifatini ta'minlash tizimining shakllanishi. URL: <https://nqaae.uz/uz/our-history>
3. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi haqida. URL: <https://tuit.uz/talim-sifatini>
4. Quality Assurance in Higher Education: Challenges and Opportunities in Central Asia. QAHE. URL: <https://www.qahe.org/article/education-in-central-asia-challenges/>
5. Мирзиёев Ш.М. Определены новые подходы к обеспечению занятости выпускников вузов [Электронный ресурс] // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан. – 08.08.2025. – Режим доступа: [Официальный сайт Президента Республики Узбекистан](#) (дата обращения: 15.06.2026).